



Received: April 17, 2025
Accepted: June 24, 2025
Available online: June 25, 2025

Xurshidjon Xayrullayev

Filologiya fanlari doktori, professor
Samarqand daxvlat chet tillar instituti
Samarqand, O'zbekiston

Khurshidjon Khayrullaev

Professor, Doctor of Sciences in Philology (DSc)
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan
E-mail: xayrullayev1976@gmail.com
ORCID iD: 0000-0003-1645-5168

PREDIKATIVLIK HODISASI VA UNING TILSHUNOSLIKDAO'RGANILISH HOLATI

ANNOTATSIYA

Predikativlik hodisasining lisoniy talqini jahon tilshunosligida muammoli bo'lib keldi va bugungi kunda ham ana shu tarzda qolmoqda. Mazkur ishda asosiy maqsadimiz shu mummolarning asoslarini va sabablarini aniqlashdan iborat. Aytish lozimki, mazkur muammoga sobiq Ittifoq tilshunosligida akademik V.V. Vinogradovning bu haqda bildirgan fikr va mulohazalaridan so'ng chek qo'yildi. Biroq shunga qaramay, masala muhokamasi tilshunoslarimiz e'tiboridan tushib qolmadi. Shuning uchun asosiy vazifa sifatida, ayniqsa, bugungi kunda uning ko'p tomonlarini faktik til materiallariga hamda ekstralingvistik omillarga tayangan holda qaytadan ko'rib chiqish zarurati mohiyatini belgilashga qaratilmoqda.

Darhaqiqat, predikativlik muammosining jiddiy talqiniga bo'lgan talab mutlaqo asoslidir. Zotan, tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davrigacha predikativlik va kesimlilik, predikativlik va fe'l zamoni, predikativlik va modallik, predikativlik va til hamda nutq birliklari (so'z, so'z birikmasi, gap) o'rtasidagi real munosabat masalasi izohtalab bo'lib qolmoqda. Masala tavsifi jahon tilshunosligi uchun, shu jumladan, o'zbek tilshunosligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Buni hal etish uchun mavjud nazariy qarashlarni tavsifiy, qiyosiy va transformatsiya metodlari asosida o'rganishni tanladik.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, predikativlik muammosi rus tilshunosligida mukammalroq o'rganildi, masalan, A.A. Potebnya, E.A. Boduen de Kurtene, A.A. Shaxmatov, V.V. Vinogradov, M.I. Steblin-Kamenskiy, A.I. Smirniskiy,

THE PHENOMENON OF PREDICATIVITY AND ITS STUDY IN LINGUISTICS

ABSTRACT

The linguistic interpretation of the phenomenon of predicativity has long remained a problematic issue in world linguistics and continues to do so even today. The main purpose of this study is to identify the foundations and causes of these problems. It should be noted that in the linguistics of the former Soviet Union, this issue was considered settled after the opinions and views expressed by Academician V.V. Vinogradov. Nevertheless, discussion of the problem did not disappear from the attention of linguists. Therefore, one of the main tasks today is to define the necessity of reconsidering its many aspects on the basis of factual linguistic material and extralinguistic factors.

Indeed, the demand for a serious interpretation of the problem of predicativity is fully justified. Up to the present stage of the development of linguistics, the real relationships between predicativity and predication, predicativity and verb tense, predicativity and modality, as well as predicativity and linguistic and speech units (word, phrase, sentence) still remain in need of clarification. The description of this problem is of great importance for world linguistics, including Uzbek linguistics. To solve it, we have chosen to study existing theoretical views using descriptive, comparative, and transformational methods.

It should be especially emphasized that the problem of predicativity has been studied more thoroughly in Russian linguistics by scholars such as A.A. Potebnya, J.A. Baudouin de Courtenay, A.A. Shakhmatov, V.V. Vinogradov, M.I. Steblin-Kamenskiy, A.I. Smirnitskiy, Y.S. Stepanov,

Y.S. Stepanov, A.G. Rudnev, A.N. Gvozdev, Y.I. Shutova, V.B. Kasevich va boshq. Lekin, shunday bo'lishiga qaramay, masala talqinida ko'p hollarda bir tomonlikka yo'l qo'yilgani aniqlandi. Natijada predikativlik hodisasi faqat gapga xos ekanligi, uning tilning boshqa birliklariga aloqador emasligi alohida bo'rttirildi.

Asosiy xulosa shuki, buning, albatta, sobiq Ittifoq tarkibidagi milliy respublikalar xalqlarining tilshunosligiga ta'siri katta bo'ldi, oqibatda bu sohada talay izohtalab mulohazalar shakllanib qoldi. Shuning uchun tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi bosqichida predikativlik hodisasi talqini lisoniy muammo sifatida yana kun tartibidan o'rin ola boshladi.

Kalit so'zlar: predikativlik, predikat, so'z, so'z birikmasi, gap, til birliklari, nutq birliklari, paradigmatica, sintagmatika, iyerarxiya.

A.G. Rudnev, A.N. Gvozdev, Y.I. Shutova, V.B. Kasevich, and others. However, despite this, it has been found that the interpretation of the issue was often one-sided. As a result, predicativity was exaggerated as being a phenomenon characteristic only of the sentence and as having no relation to other units of the language.

The main conclusion is that this had a significant influence on the linguistics of the peoples of the national republics within the former Soviet Union, as a result of which many issues in this field remained in need of explanation. Therefore, at the present stage of the development of linguistic science, the interpretation of the phenomenon of predicativity has once again begun to occupy a place on the agenda as a linguistic problem.

Key words: predicativity, predicate, word, phrase, sentence, linguistic units, speech units, paradigmatics, syntagmatics, hierarchy.

KIRISH

Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davrigacha juda ulkan yutuqlarga erishildiki, bu yutuqlar uning har bir sohasida o'zining aksini topdi. Ularni fonetik muammolarning talqinida ham, leksik, morfologik, sintaktik muammolarning tavsifida ham, umumiy tilshunoslik masalalarining yoritilishida ham bimalol kuzatish mumkin.

Tilshunoslik fanining so'nggi yutuqlaridan yana biri shunda ko'rinadiki, unga ko'ra lingvistika ikkiga, ya'ni til lingvistikasi va nutq lingvistikasiga ajratilib o'rganila boshladi. Shunday bo'lishi tabiiy edi, chunki ko'p yillar mobaynida nutq hodisalari til hodisalaridan farqlanmadi. Aniqrog'i, til bilan nutqni yaxlit bir hodisa deb tushunildi va natijada til sistemasi qonun-qoidalari mukammal o'rganildi-yu, nutq qonuniyatlari talqini kun tartibidan chetga chiqib qoldi. Ana shu bois bugungi tilshunoslikning asosiy dolzarb masalalaridan biri til unsurlarining nutqda real qo'llanilishini o'rganishni taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODLARI

Ayni paytda asosiy e'tibor F. de Sossyur tomonidan ilmiy asoslab berilgan til va nutq dixotomiyasi [Sossyur, 1977] va bu bilan uzviy bog'liq bo'lgan qator muammolar tadqiqiga qaratilmoqda. Ana shu asosda umumiy tilshunoslik va ayrim xususiy tilshunosliklar doirasida ham ancha muhim ishlar qilindi. Bunga jahon tilshunosligida hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan hisoblangan funksional sintaksis, semantik sintaksis, psixolingvistika, derivatologiya masalalarining mukammal o'rganilayotganligi misol bo'la oladi.

Bu sohada Praga tilshunoslik maktabi vakillari Y.Kurilovich, V.Matezius,

A.Martine hamda A.A. Xolodovich kabi taniqli tilshunoslarning xizmatlarini alohida qayd etish darkor [Kurilovich, 1962; Matezius, 1967; Kholodovich, 1979; Martine, 2009]. O‘zbek tilshunosligida ham sintaktik muammolar tadqiqi taniqli tilshunoslar G‘.Abdurahmonov, A.G‘ulomov, M.Asqarova, A.Nurmonov, N.Mahmudov, I.Rasulov, H.Ne‘matov, R.Sayfullayevalar va ularning ko‘plab shogirdlari tomonidan ancha asosli o‘rganildi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda semantik sintaksis, formal-funksional sintaksis muammolari borasida qilingan tadqiqot ishlari fanimiz taraqqiyotiga ulkan yutuqlar qo‘shdi. Bu o‘rinda sistem tilshunoslikning shakllanganligini va uning shaxdam odimlar bilan olg‘a borayotganini alohida ta’kidlamoq darkor.

Biroq shunday bo‘lishiga qaramay, tilshunosligimizning ba’zi masalalari ham borki, bizning nazarimizda, ularga berilgan ta’rif va tavsiflar bugungi kunda ko‘pchilikni qoniqtirmayapti. Bunday masalalardan biri predikativlik muammosidir.

Predikativlik tushunchasi “predikat” termini bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u lotin tilida praedicatum – aytilgan (bayon etilgan) degan ma’noni taqozo etadi [Yartseva, 1990; 392]. Mazkur termin (predikat) dastlab mantiqiy tushuncha sifatida ishlatilib, bizga u Aristotel asarlaridan meros bo‘lib qolgan (hukmning subyekti va predikati).

Predikat tushunchasi keyinchalik tilshunoslik fanida ham gapning ma’lum bir bo‘lagi ma’nosida qo‘llanila boshlaydi va bugungi kunda ham ko‘pchilik g‘arb tillarida (ingliz, fransuz, ispan, italyan tillari) shunday mavqega egadir. Rus tilida esa, uning kalkalashtirilgan shakli “сказьемое” terminidan foydalanilmoqda. Boshqa tillarda ham uning shunga o‘xshash qisman kalkalashgan shakllari ishlatilayotganini ko‘ramiz: masalan, o‘zbek tilida “kesim”, tojik tilida “xabar”.

Predikativlik tushunchasi tilshunoslik fanida gapning funksional xususiyatini ko‘rsatuvchi sintaktik kategoriya sifatida talqin etilib, u orqali fikrning real voqelikka munosabati ifodalanishi ta’kidlanadi. Biroq predikativlikning qay tarzda shakllanishi va uni vujudga keltiruvchi omillar xususida aytilgan fikrlar bir xil emas. Quyida ana shu masalaga to‘xtalamiz.

NATIJALAR

Shu narsa xarakterliki, an’anaviy tilshunoslikda gap nazariyasi mantiqiy hukmga asoslangan tarzda vujudga keldi va juda ko‘p hollarda gap bilan hukm tushunchalari bir-biri bilan qorishib, gapdagi ega va kesim mantiqiy subyekt va predikat tushunchalaridan keskin farq qilinmadi. Bunday holatni 1800-yillardayoq ba’zi tilshunoslar to‘g‘ri baholay bildilar va unga qarshi o‘z fikrlarini bayon etdilar. Masalan, rus tilshunoslari A.A. Potebnya, Qozon tilshunoslik maktabining asoschisi I.A. Boduen de Kurtene kabilarni ular jumlasiga kiritish mumkin.

A.A. Potebnya mantiqqa xos bo‘lgan qonun-qoidalarning grammatikaga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirilishiga qarshi edi. Shu bois u predikativ munosabatni fe’l formasining real qo‘llanilishi deb tushunadi. Biroq shunday bo‘lsa-da, u ham grammatik gapni mantiqiy hukmda bo‘lgani kabi ikki turga – bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarga bo‘lib o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi [Potebnya, 1874]. Bu an’ana hozirgi kungacha davom etib kelmoqda: kesimsiz bir bosh bo‘lakli gaplar, egasiz bir bosh bo‘lakli gaplar. Biroq ba’zi so‘z-gaplarni egasiz ham, kesimsiz ham

deb bo'lmaydi. Ammo ularning predikativlik belgisi mavjud bo'ladi. Masalaning bir tomoni bugungi kunda izohtalab bo'lib kelmoqda.

Bunday gaplarda predikativlik belgisi mavjud bo'lishiga qaramay, subyekt haqida ham, predikat haqida ham gap bo'lishi mumkin emas. Lekin akademik A.A. Shaxmatov bu singari gaplarda fikr tugalligi, ohang butunligi, subyekt va predikat munosabati shakllangan bo'ladi, deb tasavvur etadi [Shakhmatov, 1941; 37].

A.A. Shaxmatovning fikriga to'liq qo'shilish mumkin bo'lmasa-da, uning predikativlik belgisini ifodalashda ohangning ahamiyati xususidagi mulohazasini ijobiy baholash lozim. Zero, ohang predikativlik ifodasining asosiy unsurlaridan biri sanaladi. Ammo V.V. Vinogradov to'g'ri eslatib o'tganidek, nutqning voqelikka munosabati yuz bermas ekan, ohang o'z-o'zicha biror vazifa bajara olmaydi [Vinogradov, 1975; 265]. Bundan tashqari, ohangni til unsuri deb atash ham noto'g'ri, zero til sistemasi belgilari orasida uning o'rni yo'q. Ohangning til unsurlariga ta'siri faqat so'zlovchi orqali amalga oshadi va shundan keyin u predikativlik ifodalovchi ekstralingvistik omillardan biriga aylanadi.

Shuni ham aytish kerakki, yozma nutqda ohang og'zaki nutqdagiga nisbatan ancha mavhum ifodali bo'ladi. Bunda qandaydir ma'noda tinish belgilari faollik ko'rsatadi va ular orqali ohang ifodasi belgilanadi.

MUNOZARA

V.V. Vinogradov predikativlik hodisasini gap mazmunining voqelikka munosabati deb talqin etadi va uning real ifodalanishi ohangdan tashqari shaxs, zamon singari grammatik kateqoriyalar va modallik belgisi orqali ro'y berishini alohida ta'kidlaydi [Vinogradov, 1975; 266]. Quyida ana shu vositalar tavsifiga nisbatan kengroq izoh beramiz, chunki V.V. Vinogradov ta'limoti sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi davlatlar milliy tilshunosligiga ancha kuchli ta'sir o'tkazdi va ularga predikativlik hodisasining ilmiy izohlanishi uchun poydevor – asos vazifasini bajardi.

V.V. Vinogradov ta'limotida predikativlik faqat gapga xos bo'lgan va u orqali voqe bo'la oladigan hodisa tarzida izohlandi. Gapdan boshqa til birliklari bundan istisnodir.

Bizningcha, predikativlik hodisasini faqat gap mazmunining voqelikka munosabati tarzida tushunish uning faqat bir qirrasinigina tashkil etadi. Zero, mazkur hodisa tilning gapdan boshqa birliklari – so'z va so'z birikmalari doirasida ham voqe bo'lishi mumkin.

Predikativlik hodisasining shaxs bilan, xususan, so'zlovchi shaxsi bilan bog'liqligi izoh talab qilmaydi, albatta. Lekin shaxs predikativlikning real ifodalanishi uchun har doim ham asosiy omillardan biri sifatida qatnasha olmaydi. Chunki, u ekstralingvistik omil sifatida aksariyat hollarda nutq muhiti tomonidan boshqariladi, hech bo'lmaganda, nutq muhitining ta'sirida faoliyat ko'rsatadi va u bilan hisoblashishga majbur bo'ladi. Shuning uchun predikativlikning real ifodasi nutq muhiti orqali amalga oshishini ham eslatib o'tish zarur, deb hisoblaymiz.

Predikativlik hodisasining zamon bilan bog'liqligi, zamonning esa predikativlik ifodalovchi omil ekanligi bilan qo'shilish qiyin, chunki predikativlik hodisasini til

nuqtayi nazaridan tushunganimizda ham zamon hech qanday ma'no kasb etmaydi. Boshqacha aytganda, predikativlik ro'y berar ekan, fikrning hozirgi, kelasi yoki o'tgan zamon shakllarining qaysi birida ifodalanishidan qat'i nazar, u o'zgarib qolmaydi. Biror zamon tushunchasiga aloqador bo'lmagan ayrim gaplarda ham predikativlik mavjud bo'laveradi. Hatto predikativlikni kesimlilik deb tushunganimizda ham zamonning bunga aloqasi yo'q. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, uning ikkinchi tomonini ba'zi tillarda predikativlik ot bilan ifodalanishida ko'ramiz. Shu bois zamon predikativlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lolmaydi.

Predikativlik hodisasining ifodalanishida modallik tushunchasining tutgan o'rni va uning ahamiyati bilan to'liq qo'shilish mumkin. Modallik haqida gapirganida, Sh.Balli uni "gapning jonidir" deb ta'riflaydi va "go'yo fikr singari u ham so'zlovchining faol harakatlari natijasida vujudga keladi" degan xulosalarga keladi [Balli, 2009].

Sh.Balli to'g'ri ta'kidlaganidek, gapda modallik so'zlovchi tomonidan shakllantiriladi. Ba'zi modal fe'llar hamda modal so'zlarning yo'rig'i boshqa. Ammo bunday so'zlar o'z-o'zicha modallik ifodalasa-da, predikativlik ifodalay olmaydi. Ular nutqda real qo'llanilganda, voqelikka munosabat bildiradi va bir paytning o'zida predikativlik ifodalanishida faollashadi. Lekin bunda so'zlovchining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlovchi ekstralingvistik faktorlar jumlasiga kirsada, til unsurlarining nutqqa (paradigmatik qatordan sintagmatik qatorga) ko'chirilishida ongli ravishda faoliyat ko'rsatuvchi asosiy vositadir.

Ko'rinadiki, V.V. Vinogradov ta'limotida, garchi jiddiy izohtalab fikrlar bo'lsa-da, predikativlik hodisasini grammatik (sintaktik) nuqtayi nazardan asoslashga harakat qilingan. Biroq ko'pchilik tilshunoslar ishlarida predikativlik hodisasi grammatik kategoriya tarzida izohlansa ham, mantiqiy hukm bilan gap tushunchalari o'rtasida mavjud bo'lgan farqli tomonlar asosli ravishda talqin etilmaydi. Masalan, taniqli rus tilshunoslaridan biri V.G. Admoni predikativlik hodisasini subyekt va predikat o'rtasidagi faol dinamik munosabatda ko'radi va bu munosabatni har qanday gapning shakllanishida eng zaruriy shartlardan biri deb biladi [Admoni, 1955; 38].

V.G. Admoni nazariyasida A.A. Shaxmatov fikriga mushtarak tomonlar borligini kuzatamiz. Chunki, A.A. Shaxmatov ham predikativlik ega bilan kesim munosabatda tug'ilishini ta'kidlagan edi. Biroq bu fikr ba'zi tilshunoslarni qoniqtirmadi. Buning asosiy sababi bir tarkibli gaplarning mavjudligida edi. Masalan, M.I. Steblin-Kamenskiy A.A. Shaxmatov nazariyasini asosli ravishda tanqid qiladi va quyidagi mulohazalarni bildiradi: "Agar ega-kesim predikativ munosabatda bo'ladigan gap bo'lagi hisoblansa, kesimi ifodalanmagan gaplarda ega bilan predikativ munosabatni tashkil etadigan bo'lak bo'lmaydi. U holda bunday gaplarni (bir tarkibli gaplarni – X.X.) predikativ birligi yo'q (ya'ni predikativsiz) gaplar deb atashga to'g'ri keladi [Steblyin-Kamenskiy, 1974; 41-42].

M.I. Steblin-Kamenskiy gapning predikativlik belgisi kesim bilan bevosita bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ammo, shu bilan birga, predikativlikning mavjudligi gapning asosiy belgisi bo'la olmasligi, aksincha, uning gapdan boshqa birliklarda ham kuzatilishi mumkinligini eslatib o'tadi. M.I. Steblin-Kamenskiy predikativlik tushunchasi kesim bilan bog'lanar ekan, tarkibida kesimi bo'lgan har

qanday gap hukmni ifodalaydi degan xulosaga keladi: “Predikativlik, yoki predikativ munosabat – bu mazmuni e’tiboriga ko‘ra mantiqda (logikada) subyekt bilan predikat o‘rtasidagi munosabatning aynan o‘zidir” [Steblyn-Kamenskiy, 1974; 44].

M.I. Steblyn-Kamenskiyning predikativlik xususidagi fikrlarida ham talay g‘alizliklar borligini ko‘ramiz. Birinchidan, bunda predikativlik tushunchasi kesimlilik tushunchasi bilan qorishtirilib yuboriladi. Ikkinchidan, predikativlik tushunchasi kesimsiz gaplarga ham taalluqli ekanligi kun tartibiga qo‘yilmaydi va predikativlik subyekt bilan predikat o‘rtasidagi munosabatni taqozo etadi degan faqat mantiqiy hukm uchun xarakterli bo‘lgan qarorga kelinadi.

V.Z. Panfilovning fikricha, predikativlik mazmuni e’tiboriga ko‘ra gapning biror bo‘lagiga emas, balki uning yaxlitligicha olingan strukturasiga xosdir. Kesimlilik bilan predikativlik o‘rtasida ega bilan mantiqiy subyekt o‘rtasida qanday farq bo‘lsa, ana shunday prinsipial farq mavjud. Kesimlilik bilan predikativlikning mos kelishi ega mantiqiy subyektini, kesim esa mantiqiy predikatni ifodalagan taqdidagina kuzatilishi mumkin [Panfilov, 1971; 169-170].

V.Z. Panfilovning predikativlik hodisasi gapning to‘liq shakliga, yaxlitligicha olingan strukturasiga bog‘liqligi xususidagi fikriga qo‘shilish mumkin. Negaki, predikativlik gapning alohida olingan qandaydir bir bo‘lagini emas, balki uning to‘liq mazmunini voqelik bilan bog‘laydi. Bundan tashqari, V.Z. Panfilov nazariyasida predikativlik bilan bog‘liq bo‘lgan modallik tushunchasi haqida ham, bizningcha, to‘g‘ri fikr bildirilgan. Muallif modallikni gapning butun mazmuniga xos bo‘lgan predikativ kategoria sifatida talqin etadi va shu bilan birga, ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda predikativ kategoria deb izohlanib kelingan fe’lning mayl kategoriyasida predikativlik xususiyati yo‘qligini ham to‘g‘ri qayd etadi [Panfilov, 1971; 174, 200].

Modallikning predikativlik hodisasini vujudga keltiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini T.I. Desheriyeva ta’kidlaydi: “Modallik (zamon, aspektuallik, zalog, son kabi til kategoriyalari bilan bir qatorda) predikativlikni vujudga keltiruvchi asosiy vositadir. Demak, u predikativlikning ajralmas bir qismi hisoblanadi” [Desheriyeva, 1987; 40]. Shuningdek, T.I. Desheriyeva predikativlik ifodalovchi vositalardan ohang xususida ham fikr bildiradi. Biroq muallif ohangni gapning aktual bo‘laklarga ajralishi muammosi doirasida tahlil qiladi va predikativlik tushunchasini ham u bilan bog‘laydi. Bu esa, o‘z navbatida, predikativlik tushunchasining grammatik nuqtayi nazaridan emas, balki mantiqiy jihatdan talqin etilganligini ko‘rsatadi. Chunki, gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishini mantiqiy urg‘usiz tasavvur etish mumkin emas.

Y.S. Stepanov modallik xususida gapirganida, uning har bir jumlada kuzatilishini va predikativlik (Y.S. Stepanovda predikatsiya – X.X.) belgisi ekanligini e’tirof etadi.

Y.S. Stepanov predikativlik hodisasining zamon bilan mutlaqo aloqasi yo‘qligini ta’kidlaydi va quyidagi xulosaga keladi: “Predikatsiya – zamon bilan bog‘liq bo‘lmagan munosabatlarni taqozo etuvchi hodisadir. Fe’l va uning zamon kategoriyasi kuzatilmaydigan gaplar ham mavjud bo‘la olar ekan, demak, predikatsiya fe’l va zamon tushunchalariga tobe emas” [Stepanov, 1975; 134].

Y.S. Stepanov mazkur fikr amalda to‘liq tasdiqlanishini ta’kidlaydi va

E.Benvenist fikrini misol keltiradi. E.Benvenistning ko'rsatishicha, fe'l qatnashmagan (именное предложение) gaplar qadimgi hind-ovrupo tillarida, jumladan Gomerda har doim zamonga aloqasi bo'lmagan xabar ifodasini bergan. Zamon ifodalangan fe'l ishtirokidagi gaplarda esa, fe'l qatnashmagan gaplarning o'ziga xos usulda kengayishi kuzatiladi. Agar fe'lsiz gapda subyektning mavjudlik usuli aniq ko'rsatilmasa, fe'l ishtirokidagi gapda bu narsa o'z ifodasini topadi (Этот воин – победитель. Воин стал победителем) [Stepanov, 1975; 134-135].

Y.S. Stepanovning mazkur mulohazalari bilan to'liq qo'shilish mumkin. Chunki, fe'lsiz gapda ifodalangan predikativlik, fe'l ishtirokidagi gapga o'zgarib qolmaydi. Zotan, xabarning voqelikka munosabati gapga zamon orqali qo'shimcha belgi kiritishi mumkin, xolos.

A.G. Rudnevning fikriga ko'ra, predikativlik munosabati gapning bosh bo'laklari o'rtasida shakllanadi. Agar ega gapda u yoki bu xildagi sifatga ega bo'lgan predmetni anglatasa, kesim ana shu predmetning real mazmunini ochib beradi. Shu bois predikativlik mazmuni ifodasi kesimning chekiga tushadi.

A.G. Rudnev, yuqoridagilardan tashqari, ajratilgan bo'lak ishtirok etayotgan gaplarda qo'sh predikativlik mavjud bo'lishini izohlaydi va bunga A.A. Shaxmatovning quyidagi misolini keltiradi: Михаил, кузнец, работает сегодня в поле.

Ayni paytda qo'sh predikativlik kuzatiladi: 1) Михаил – кузнец. 2) Михаил работает сегодня в поле [Rudnev, 1968; 36].

A.G. Rudnev qo'sh predikativlikning birinchi unsurini hozirgi tilshunoslikda "yarim predikativlik" deb atalayotganini eslatib o'tadi. Darhaqiqat, mazkur predikativlik belgilarining birinchisi, garchi Mixailning temirchi ekanligi to'liq haqiqat bo'lsa-da, xabar ifodasining to'liq salmog'ini bermayapti. Boshqacha aytganda, ayni paytda Mixailning temirchi ekanligi mazkur gapning semantik shakli markazini tashkil etayotgani yo'q. Chunki, bu o'rinda Mixailning dalada ishlayotganini eslatish asosiy maqsaddir. Bordi-yu, gapni: Bugun dalada ishlayotgan Mixail – temirchi tarzida o'zgartirsak, u holda oldingi gapdagi yarim predikativlik to'liq predikativ belgiga ega bo'ladi. Shuning uchun A.A. Saxmatovning qo'sh predikativlik haqidagi fikri haqiqatdan yiroq emasdir. Umuman olganda, gapning ajratilgan bo'laklari va predikativlik hodisasining bunga munosabati masalasi, bizningcha, alohida tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin.

A.N. Gvozdevning tadqiqotlarida predikativlik real voqelikda nimaningdir tasdiqlanishi yoki inkor etilishi deb talqin etiladi. Bunda muallif asosiy e'tiborni modallik va ohangga qaratadi va har ikki omilning ahamiyatini ham turli xil misollar orqali dalillaydi [Gvozdev, 1973]. Biroq A.N. Gvozdev predikativlik hodisasini muammo sifatida yoritmaydi.

N.S. Valgina predikativlik deganda, modallik va sintaktik zamon tushunchalaridan tashkil topgan grammatik kategoriyalar majmuasini tushunadi va quyidagi xulosaga keladi: "Demak, predikativlik – bu xabarning voqelikka umumiy munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriyadir. Mazkur umumiy munosabatning tarkibiy qismlari sintaktik zamon va modallik hisoblanadi" [Valgina, 1973; 14]. Bunda modallik va sintaktik zamon tushunchalari bir-biridan ajralmaydigan unsurlar

ekanligi qat'iy ravishda ta'kidlanadi. Ularning munosabatisiz predikativlik ham bo'lmashligi aytiladi. N.S. Valgina predikativlik hodisasi quyidagi vositalar yordamida ifodalanishini alohida ta'kidlaydi: fe'ning mayl va zamon kategoriyalari, maxsus yuklamalar [Valgina, 1973; 15].

Ko'rinadiki, N.S. Valgina nazariyasida predikativlik hodisasi qat'iy ravishda fe'ning zamon va mayl kategoriyalari bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Biroq Y.I. Shutova bu haqda, bizningcha, ancha asosli fikr bildiradi. V.V. Vinogradov ta'limoti ta'sirida shaxs, zamon va modallik predikativlikni ta'minlovchi asosiy sintaktik kategoriyalar tarzida talqin etilayotganiga qo'shilmaydi va predikativlik kategoriyasi bilan fe'ning shaxs, zamon va modallik kategoriyalari o'rtasida katta farq borligini, ular til sistemasining turlicha qirralarini tashkil etishini dalillaydi. Bu kategoriyalar maqsadi va vazifasiga ko'ra mushtarak emas. Ular o'rtasida ma'lum bir maqsad ifodasiga ko'ra bog'liqlik paydo bo'lishi mumkin. Muallif predikativlikni barcha tillar uchun umumiy bo'lgan har qanday tilda ham kuzatiladigan universal hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Shu bois o'z fikrini predikativlik aksariyat hollarda ot bilan ifodalanishi kuzatiladigan hozirgi xitoy tili materiallari orqali asoslab beradi va yuqorida eslatib o'tilgan fe'l kategoriyalarini predikativlik hodisasining ifodalanishida qo'llaniladigan, ammo doimiy xarakterda bo'lmaydigan morfologik unsurlardan biri sifatida izohlash maqsadga muvofiq, ekanligini aytadi [Shutova, 1984; 148-149].

R.A. Budagovning ta'limotida ham predikativlikning real ifodalanishi uchun xabar tarkibida fe'ning ishtirok etishi shart emasligi ko'rsatiladi [Budagov, 1965; 331].

Bu borada Y.I. Shutova bilan ham, R.A. Budagov bilan ham to'liq hamfikir bo'lish mumkin. Lekin ularda ham, bizningcha, bir tomonlikka yo'l qo'yilgan. Boshqacha aytganda, predikativlik hodisasi xabarning voqelikka munosabatini taqozo etishi to'g'ri izohlangan bo'lsa-da, bu hodisaning shakllanish obyekti faqat gap bo'la olishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Bunday fikr V.G. Gakning predikativlik xususidagi ta'limoti uchun ham xarakterlidir. Mazkur nazariyada ham predikativlik faqat gap doirasida mavjud bo'lishi izohlanadi. V.G. Gak predikativ va nopredikativ birikmalarni quyidagicha farqlash lozimligini ko'rsatadi: predikativli munosabatda predmet yoki belgi va predmet aloqasi fikrlash jarayonining o'zi orqali belgilanadi (*Le cheval est blanc* – ot-oq; *Le cheval court* – ot chopayapti), nopredikativ munosabatda esa bunday aloqa fikrlash jarayoni ro'y berayotgan nutq muhitidan oldin belgilangan bo'ladi (*un cheval blanc* – oq ot; *la course du cheval* – otning chopishi).

V.G. Gakning fikriga ko'ra, predikativlik ifodasining tashqi grammatik formasini ega va kesim o'rtasidagi munosabat tashkil etadi. Bu hodisani predikativlikning formal-sintaktik nuqtayi nazardan tavsiflanishi deb atash mumkin bo'lsa, uni mantiqiy (logik) nuqtayi nazardan subyekt bilan predikat o'rtasidagi munosabat deb tushunmoq lozim. Bundan tashqari, predikativlikni gapning ma'lum bir nutq muhiti bilan munosabati sifatida talqin etish ham mumkin. Bunda intonatsiya muhim omillardan biri sanaladi.

Biroq bu xildagi nuqtayi nazarlar biri ikkinchisini inkor etmaydi. Ular predikativlik hodisasining turli qirralari hisoblanadi [Gak, 1981; 61-62].

Bizningcha, bu o'rinda V.G. Gak predikativlik hodisasini mutlaqo ilmiy asoslashga harakat qilgan bo'lsa-da, mantiqiy qoidalar bilan grammatik qonun-qoidalar o'rtasida jiddiy farqlar ham mavjudligiga yetarli e'tibor bermaydi. Zero, mantiqiy predikat va subyekt ba'zi hollardagina grammatik ega va kesim to'g'ri kelishi mumkin. Shu bois subyekt-predikat, ega-kesim bir hodisaning turli qirralari bo'la olmaydi. Yuqoridagilardan tashqari, V.G. Gak nazariyasida ham shaxs, zamon va modallik predikativlikning asosiy kategoriyalari sifatida ko'rsatiladi. Va nihoyat, yana shuni ham alohida eslatish lozimki, V.G. Gak yarim predikativlik hodisasini polipredikativlik (ko'ppredikativlik)ning murakkab formalaridan biri, deb izohlaydi [Gak, 1981; 63]. Bu fikrga ham qo'shilish ancha qiyin, zero, yarim predikativlik hodisasi markaziy predikatsiyaning sathida (unga qaram holda) ro'y beradi, polepredikativlik tushunchasi esa har biri o'zicha markaz tashkil eta oladigan qo'shma gap tarkibiy qismlari bilan aloqadordir.

Predikativlik hodisasi xususida bildirilgan A.I. Smirnitskiyning mulohazalarini alohida ta'kidlash lozim. A.I. Smirnitskiy predikativlik hodisasini jumlaning voqelikka munosabati tarzida izohlaydi. Biroq, shu bilan birga, A.I. Smirnitskiy predikativlik hodisasining ayrim olingan ba'zi so'zlarda ham kuzatilishini ta'kidlaydi. Bu haqdagi fikr va mulohazalarini u quyidagi misollar orqali dalillaydi:

1. London – shaharning nomini bildiruvchi mustaqil so'z.
2. London – kitobning sarlavhasi (nomi).
3. London – London shahri tarxining (planining) tepa qismiga yozib qo'yilgan so'z.
4. This is London – Bu – London.

Bunda keyingi misol, oldingi uchtasidan farqli ravishda, to'liq predikativlik sintaktik qurilmani taqozo etadi. Lekin bu jihatdan uchinchi misol to'rtinchi misolga ancha yaqin turadi. Chunki, u orqali real voqelikka munosabat bildirilayotganini inkor etib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, chizma haqiqatan ham London shahri haqida, uning hududi xususida to'liq ma'lumot bera oladi.

Birinci va ikkinchi misollarda esa predikativlik belgilari kuzatilmaydi, zotan ular orqali voqelikka munosabat bildirilmayapti. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, ikkinchi misol birinchisidan farq qilishi, uning predikativlik ifodalashga yaqinlashib qolganligi ham eslatib o'tiladi. Birinchi misolda ham, ikkinchi misolda ham London lug'at boyligimizdagi oddiy so'z emas, balki ma'lum bir tushuncha haqidagi aniq tasavvurni taqozo etmoqda. Bunday unsurlarni reprezentativ so'zlar deb atash mumkin [Smirnitskiy, 1957; 103-104].

A.I. Smirnitskiy predikativlikni ifodalash yo'llari turlicha ekanligini, biroq ular ichida intonatsiya hamma tillar uchun eng xarakterlisi sanalishini aytadi. Bundan tashqari, A.I. Smirnitskiy predikativlik hodisasi fe'lning shaxs formalari orqali, ba'zan esa fe'l ishtirokisiz ham ifodalanishi mumkinligini ta'kidlaydi.

A.I. Smirnitskiy ta'limotida fe'l va uning mayl, zamon formalari predikativlik ifodalovchi turli usullardan biri ekanligi to'g'ri ko'rsatiladi. Shaxs, son kategoriyalarini muallif bunda ikkinchi darajali vositalar, deb hisoblaydi.

A.I. Smirnitskiy predikativlik va kesim, subyekt va ega o'rtasida ma'lum

darajadagi munosabat mavjudligini, lekin ular mushtarak (analogik) tushunchalar emasligini alohida eslatib o'tadi. Zero, kesim va ega gap bo'laklari bo'lsa, predikat bilan subyekt tafakkur (fikr) predmetlaridir.

Kesim bilan ega o'rtasida o'ziga xos munosabat mavjudligi shubhasizdir. Lekin bu munosabatni bilvosita munosabat deb bilmoq kerak. Chunki, ega bilan eng avval subyekt o'rtasida uzviylik vujudga keladi va kesim ana shu subyekt orqali egaga bog'lanadi [Smirnitkiy, 1957; 37, 47].

Ko'rinadiki, A.I. Smirnitkiy mantiqiy subyektga murojaat etish orqali egani aniqlashga harakat qiladi. Bizningcha, ega va kesim o'rtasidagi predikativ munosabatni sof grammatik nuqtayi nazardan izohlash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu, albatta, masalaga formal-grammatik nuqtayi nazardan yondashishni taqozo etadi, semantik sintaksis nuqtayi nazaridan esa, aksariyat hollarda mantiqiy qonun-qoidalarga murojaat etishga to'g'ri keladi. Shu bois so'nggi yillarda vujudga kelayotgan semantik sintaksis sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda, shu jumladan, o'zbek tilshunosligidagi ba'zi ishlarda ham to'g'ridan to'g'ri "subyekt", "predikat" terminlari qo'llanilmoqda. Bu narsa, albatta, mazmuniy sintaksisning maqsadi va vazifalari bilan bevosita bog'liqdir.

V.B. Kasevichning ilmiy tadqiqotlari bu sohada alohida ahamiyatga ega. U predikatni jumlaning mazmuni markazini tashkil etuvchi vosita deb biladi, subyektning esa predikat argumenti tarzida izohlaydi. Bundan tashqari, argument vazifasini obyekt ham o'tashi ta'kidlanadi [Kasevich, 1988].

V.B. Kasevich predikativlik tushunchasining zamon tushunchasi bilan aloqasi yo'qligini ko'rsatadi va uni semantik nuqtayi nazardan shunday izohlaydi: "Predikativlik – bu, tushunchani semantik nuqtayi nazardan izohlaganimizda, predikatning o'z argumenti bilan bo'lgan munosabatidan boshqa narsa emas: qayerda propositsiya bo'lsa, u yerda predikativlik ham mavjuddir. Propozitsiya esa, o'z navbatida, zamon tushunchasi bilan bog'liq emas" [Kasevich, 1988]. Bunda muallif propositsiyani o'z ichki mantiqiy (logik) strukturasi bilan yaxlitligicha olingan muhit (situatsiya), deb izohlaydi.

Albatta, V.B. Kasevichning predikativlik tushunchasi xususida bergan ma'lumotlari semantik sintaksis nuqtayi nazaridan g'oyat qimmatlidir. Biroq formal-sintaksis qonun-qoidalarning o'z qo'llanish o'rni va yo'nalishi mavjudligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ko'p o'rinlarda mustaqil fikrlashga to'g'ri keladi. Chunki, formal egadan, formal kesimdangina tashkil topgan, ba'zan esa na egani, na kesimni taqozo eta oladigan so'z-gaplar xususida gapirganimizda predikat va uning argumentlarini belgilash ancha murakkab bo'ladi. Boshqacha aytganda, situatsiyaning o'zi ham propositsiya, ham argument vazifalarini o'tashi mumkin. Formal-sintaktik jihatdan esa bu ikkinchi darajalidir. Shuning uchun propositsiyani biz asosan sintaktik qurilmaning shakllanish asosi, tayanch nuqtasi deb tushunamiz va ko'proq S.D. Katsnelsonning bu haqda bildirgan nazariy fikrlariga suyanamiz.

S.D. Katsnelson propositsiyani har qanday jumlaning shakllanish asosi deb tushunadi. Uning to'g'ri ta'kidlashicha, propositsiya elementar, jumladan o'zining mantiqiy jihatdan teng hisoblangan obyektlar o'rtasidagi ma'lum bir holatni ifodalashi bilan farq qiladi. Masalan, Я вернул брату книгу; Брат получил от меня книгу

обратно; Книга возвращена мной брату. Bu gaplarning har uchalasi ham bir xil, ya'ni "Я", "Мой брат", "Книга" kabi ishtirokchilar vositasida shakllanmoqda.

Ularda so'z tartibi, so'zlarning grammatik vazifalari turlichadir. Lekin bu gaplar mazmuni asoslari tengdir. Aynan ana shu narsani propozitsiya deb atash mumkin. Propozitsiya tarkibida predikat va argumentlar munosabati shakllanadi [Katsnel'son, 1986].

Ko'rinadiki, yolg'iz bir propozitsiya asosida turli predikatlar vujudga kelishi mumkin bo'lsa-da, umumiy predikativlik salmog'i o'zgarmaydi. Bu vaziyat muhimdir, zotan, bir-biri bilan sinonimik holatda bo'lgan turlicha shakllardagi sintaktik qurilmalar doirasida predikativlik salmog'i va uning ifoda mazmuni ham bir xil bo'ladi.

Y.S. Kubryakova propozitsiyani jumlaning yadrosi deb ataydi va gapning denotati predmet emas, balki yaxlit bir situatsiya sanalishini ta'kidlaydi. Muallif gap til belgilarining o'zaro predikativ munosabatga kirishuvini ta'minlaydigan qoidalar yig'indisidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Y.S. Kubryakova tadqiqotlarida shu narsa xarakterliki, u sintaksisni ikkiga – katta va kichik sintaksislarga bo'lishni tavsiya etadi. Katta sintaksisda asosan gap, ya'ni to'liq predikativli sintaktik qurilmalar o'rganilsa, kichik sintaksisda so'z birikmalari, ya'ni tarkibiy qismlari o'zaro yashirin predikativli munosabatda kelishi mumkin bo'lgan sintaktik qurilmalar o'rganiladi. Yashirin predikativli munosabat atomar predikat yordamida vujudga keladi degan xulosaga kelinadi [Kubryakova, 1986; 107-108]. Atomar predikativli munosabatni, masalan, дом отца (otamning uyi – qaratqichli munosabat), лес за рекой (daryoning narigi tomonidagi o'rmon – o'rin-joy munosabati) kabi birikmalarda bema'lol ko'rsa bo'ladi. Bu singari ichki predikativlik munosabatini приезд, грабитель so'zlarida yanada aniqroq kuzatish mumkin [Kubryakova, 1986; 119].

Bizningcha, ichki predikatsiya muammosi bugungi kunda tilshunoslik fanining eng dolzarb lisoniy masala sifatida tadqiqotlarimiz mundarijasidan o'rin olmog'i lozim. Buning quyidagi ikki jihatdan ahamiyati g'oyat muhimdir: birinchidan, masala o'z mazmuni salmog'iga ko'ra yangidir; ikkinchidan, u nominativ birliklarni yanada chuqurroq o'rganish uchun, ularning propozitsional xususiyatlarini ilmiy talqin qilish uchun asos bo'la oladi.

Fransuz tilshunosi L.Tenerning predikativlik muammosiga munosabati ham an'anaviy tilshunoslikda bu haqda mavjud bo'lgan fikr va mulohazalardan keskin farq qilishini ko'ramiz. U an'anaviy tilshunoslikda subyekt va predikat tushunchalari mantiqiy prinsiplarga asoslanishini, bu prinsiplar Aristotel yashagan zamonlardan boshlab grammatik qoidalar qatorida yashab kelayotganini ijobiy baholamaydi. Bunday prinsiplardan biri subyekt bilan predikatning o'zaro oppozitsiyada (qarama-qarshi qo'yilib o'rganilishi) ekanligini ta'kidlaydi.

Masalan, subyekt predmet tasavvurini bersa, predikat belgi tasavvurini beradi degan g'oya hanuzgacha kun tartibidan tushgani yo'q. Biroq L.Tener bu g'oyani tilshunoslikka mutlaqo aloqasi yo'qligini ko'rsatadi va quyidagi fikrni bildiradi: "Hech bir til yo'qki, unda sof lisoniy dalil subyektни predikatga qarama-qarshi qo'ysa. Masalan, *Filius amat patrem* "O'g'li otasini sevadi" tarzidagi lotincha gapda *amat*

soʻzi predikativ unsur *ama-* va subyekt unsur *-t* kabilarning agglyutinatsiyasi natijasini taqozo etadi. Bunda subyekt bilan predikat oʻrtasida uzulish yaxlit soʻzning boʻlinishi orqali ifodalanayotgani yoʻq. Bunday vaziyat, aksincha, subyektning *filius...t* va predikatning *ama...patrem* tarkibiy unsurlari oʻrtasida kuzatilmoqda” [Tenʼyer, 1988; 119].

Ana shuning oʻzi ham anʼanaviy tilshunoslikda subyekt va predikat tushunchalarining qarama-qarshi qoʻyib oʻrganilishi izohtalab ekanligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, gap boʻlaklaridan birining (subyektning), boshqalaridan farqli ravishda, “ilohiylashtirilishi” va uning mutlaq hokim unsur sifatida talqin etilishi sof lisoniy nuqtayi nazardan izohlangani yoʻq. Bizningcha, buni izohlash mumkin ham emas, zero, mazkur hokimlik mavqei egaga mantiqiy nuqtayi nazardan beriladi.

Bu singari izohtalab fikr va mulohazalar, albatta, predikativlik hodisasining umumiy tavsifiga ham bevosita taʼsir koʻrsatib kelmoqda. Shu bois predikativlik tushunchasi xususida tilshunoslar tomonidan aytilgan fikrlar ham bir xil emas. Uni ayrim tilshunoslar psixologik nuqtayi nazardan, ayrimlari mantiqiy jihatdan, yana boshqalari esa semantik nuqtayi nazardan izohlashayotganini koʻramiz. Bunday vaziyat turkiy tilshunoslikda, shu jumladan, oʻzbek tilshunosligida ham kuzatiladi. A.N. Baskakovning “Hozirgi turk tilida gap” (“Предложение в современное турецком языке”) nomli asarida gapning kommunikativ vazifasi predikativlik orqali amalga oshishi aytiladi va u gapning semantik-sintaktik hamda grammatik asosini tashkil etishi alohida qayd etiladi. Muallif predikativlik hodisasini mazmuniy va ifoda rejalariga koʻra izohlaydi. Mazmuniy rejaga koʻra predikativlikning ikki jihati mavjud boʻlib, bu jihatlar quyidagicha belgilanishi lozimligi taʼkidlanadi: A) ichki predikatsiya – bunda predikatsiya hodisasi gapni tashkil etuvchi unsurlar oʻzaro aloqasining eng asosiy vositasi sifatida talqin etiladi; B) tashqi predikatsiya – unda predikatsiya hodisasi gapning umumiy salmogʻini tashkil etuvchi omil sifatida koʻrsatiladi. Ifoda rejasiga koʻra esa, predikativlikni tashkil etuvchi grammatik va nogrammatik vositalar xususida fikr bildiriladi [Baskakov, 1984; 7].

Koʻrinadiki, A.N. Baskakov predikativlikni gapning kommunikativ vazifasini belgilovchi vosita sifatida izohlaganda formal-grammatik hamda semantik jihatlarini aniq farqlamaydi va bu hodisani gapning aktual boʻlaklarga boʻlinishi bilan mushtarak bir hodisa sifatida tushunadi. Bundan tashqari, predikativlik gapning grammatik asosini tashkil etuvchi vosita tarzida izohlanishi ham mazkur hodisani faqat ega-kesim munosabatidan iborat ekanligiga ishora qiladi. Bu esa bugungi tilshunoslikning talablarini toʻla qondira olmaydi.

A.N. Baskakov predikativlikning formal belgilari jumlasiga zamon, shaxs va modallikni kiritadi. Uning bunday belgilaridan biri son kategoriyasi boʻlishi ham mumkinligi aytiladi [Baskakov, 1984; 11]. Bu fikrga ham qoʻshilish qiyin, chunki shaxs predikativlik ifodasida har doim ham qatnashavermaydi, modallik xususida soʻz yuritilganda esa, uni predikativlikning asosiy ifoda vositalaridan biri deb koʻrsatish mumkin. Bu, bizningcha, izohtalab emas. Bundan tashqari, A.N. Baskakov tadqiqotida predikativlik hodisasining eng asosiy belgilaridan biri – ohang haqida fikr bildirilmaydi.

K.M. Abdullayev predikativlikni hozirgi ozarbayjon tili materiallari asosida tekshirar ekan, uni mantiqiy (logik)-grammatik hodisa sifatida tavsiflaydi. K.M. Abdullayevning fikriga ko'ra, predikativlik hodisasi fe'l formasining ega bilan birikuvini taqozo etadi va bunda ega orqali ifodalangan subyektning belgisi fe'l-kesimda shaxs qo'shimchasi sifatida takroriy qo'llanilishiga ahamiyat beradi: "Matnning har qanday bir qismi, agar uning tarkibidagi so'zlar aloqasida takrorning ikkinchi unsuri – shaxs qo'shimchasi mavjud bo'lsa, gap deb atalishi mumkin" [Abdullayev, 1983].

Ko'rinadiki, K.M. Abdullayev tadqiqotida predikativlik hodisasi ko'proq mantiqiy qoidalarga asoslangan tarzda izohlanadi. Bunday vaziyatni I.X. Ahmatovning ilmiy kuzatishlarida ham ko'rish mumkin. Uning fikriga ko'ra, predikativlik – bu predikatning aktantlar bilan munosabati demakdir. Boshqacha aytganda, propozitsiyani predikativlik deb tushunish lozim. I.X. Ahmatov predikativlikning ifodalanishini aktantlar bilan bog'lar ekan, bu, o'z navbatida, fe'lning valentligi darajasi asosiy e'tiborda bo'lganligidan dalolat beradi, zero, aktant tushunchasi fe'l valentligi bilan uzviy bog'liqdir [Akhmatov, 1988; 26].

Bizningcha, predikativlikni propozitsiya bilan tenglashtirib, bu hodisa fe'l bilan aktantlar munosabatini taqozo etadi degan xulosa har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Chunki, propozitsiya tushunchasi tilshunoslar tomonidan har xil izohlanadi. Agar propozitsiyani ichki (tub) struktura ma'nosida qo'llasak, aktantlar o'rni ko'p hollarda bo'sh qoladi. Agar aktantlar o'rni to'ldirilgan bo'lsa, unda propozitsiya tub strukturani taqozo etmaydi.

G'.Abdurahmonov predikativlik hodisasining ifodalanishi gapning asosiy belgilaridan biri, deb hisoblaydi. Bunda olim ko'proq modallikka ahamiyat beradi va gap mazmunining borliqqa munosabati modallik orqali ifodalanishini ta'kidlaydi [Abdurahmonov, 1996; 7-8].

Shuni ham aytish kerakki, G'.Abdurahmonovning sintaktik ta'limotida predikativlik hodisasi alohida mavzu tarzida yoritilmagan. Ehtimol, shuning uchun uning muammoli tomonlari haqida keng ma'lumot berilmagan.

A.G'. G'ulomov va M.A. Asqarovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida predikativlik hodisasi ancha mukammal va atroflicha yoritilgan. Uning ifodalanish usullari masalasiga ham birmuncha kengroq to'xtalganligini kuzatamiz. Mualliflar predikativlik hodisasini gapning grammatik ma'nosi deb tavsiflaydilar va uning faqat gapga xos bo'lgan grammatik kategoriya ekanligini aytadilar. Mazkur ishda predikativlikni kesim ko'rsatishi va shu bois predikativlik hodisasi modallik, zamon, shaxs va son kategoriyalari bilan bog'liq ekanligi, ular orqali ifodalanishi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, bu asarda predikativlik psixologik kategoriya ekanligi, kesimlilik esa grammatik kategoriya ekanligi izohlanadi [G'ulomov & Asqarova, 1965]. Lekin, shunga qaramasdan, mualliflar predikativlik hodisasini ko'proq kesimlilik tushunchasi doirasida, kesimga alohida ahamiyat qaratilgani holda izohlaydilar.

Kesimlik orqali predikativlik ifodalanishi shubhasizdir. Chunki, kesim ishtirok etayotgan gaplarda voqelikka bildirilayotgan munosabatda uning mavqeyi bilan gapning boshqa bo'laklari tenglash olmaydi. Ammo, nazarimda, kesim ishtirok

etmagan gaplarda, masalan, soʻz-gaplarda ham predikativlik ifodalanishi mazkur masalaning baʼzi qirralarini hali toʻliq oʻrganilmaganligini koʻrsatadi. Bundan tashqari, predikativlik hodisasining zamon tushunchasi bilan bogʻliqligi ham ishimizning oldingi sahifalarida izohtalab ekanligi aytilgan edi.

Predikativlik hodisasi haqida I.Rasulov tomonidan bildirilgan quyidagi mulohaza, bizningcha, ancha asoslidir: “Predikativlik gapda ifoda qilingan fikrning real borliqqa boʻlgan munosabatini bildirib, turli konstruksiyadagi gaplarda turlicha ifoda qilinadi. Modallik esa uning tarkibiy qismini tashkil etadi” [Rasulov, 1972; 31].

Bu jihatdan I.Rasulovning fikri koʻpchilik tilshunoslar fikridan maʼlum darajada farq qiladi. Boshqacha aytganda, modallikning alohida kategoriya emas, balki predikativlikning tarkibiy qismi sifatida tavsiflanishi mutlaqo asoslidir. Biroq predikativlikning faqat gapga xos kategoriya tarzida tushunilishi va uning ifodalanishi zamon, shaxs hamda son kategoriyalari bilan uzviy bogʻlanishi [Rasulov, 1972; 29] masalasining muammoli qolayotganiga ishora etadi.

Predikativlik hodisasi va uning ifodalanish masalasi A.Nurmonovning ilmiy tadqiqotlarida ancha keng va atroflicha yoritilganligini koʻramiz. A.Nurmonov oʻzining “Gap haqida sintaktik nazariyalar” asarida predikativlik haqida quyidagilarni: “Hozirgi sintaktik nazariyalarda gapning boshqa til birliklaridan asosiy farqi, yaʼni gapni gap qilib turgan asosiy belgi predikativlik sanaladi. Ammo bu hodisaning mohiyati masalasi shu kunga qadar munozarali. Predikativlik yuzasidan mavjud nazariy fikrlar oʻta ziddiyatlidir” [Nurmonov, 1988; 25].

Mazkur fikr predikativlik hodisasining tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti tavsifi ahvolini nihoyatda haqqoniy koʻrsatib bermoqda. Haqiqatan ham, bu sohadagi nazariy fikrlar mushtarak emas.

A.Nurmonov predikativlikni alohida sistema tarzida izohlab, uning tarkibiy qismlari shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq-inkor maʼnolarini ifodalovchi formalar sanalishini taʼkidlaydi. Olimning fikriga koʻra, predikativlikni tashuvchi asosiy element kesimdir. Demak, predikativlikni kesimlilik deb tushunish mumkin. Turkiy tillar uchun ega gapning zaruriy unsuri emas, uning zaruriy unsuri kesim hisoblanadi. Shu bois turkiy tillarda predikativlik (kesimlik) kategoriyasidagi soʻz – forma va uni kengaytiruvchilar gap hisoblanadi [Nurmonov, 1988].

A.Nurmonov predikativlik haqidagi fikrlarini davom ettirib, quyidagilarni taʼkidlaydi: “Har qanday predikativlik predikat asosida shakllanadi. Predikativlik shakllari predikatga qoʻshiladi. Shuning uchun ham predikativlikni oʻzida aks ettirgan har qanday predikatning oʻzi eng kichik gap hisoblanadi” [Nurmonov va boshq., 1992; 44-45]. Muallif predikativlikning ifodalanishida muhim ahamiyatga ega boʻlgan modallik haqida ham mulohaza yuritadi va uni ikkiga, yaʼni obyektiv va subyektiv modallikka boʻlib oʻrganadi. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi asosiy belgilaridan biri, asosiy uzvi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik ustiga qoʻyilgan qoʻshimcha modallikni (yaʼni soʻzlovchining obyektiv mazmunga munosabatini) taqozo etadi [Mahmudov & Nurmonov, 1995; 56-57].

Koʻrinadiki, predikativlik tushunchasi A.Nurmonov taʼlimotida koʻproq logik-semantik nuqtayi nazardan izohlanadi. Darhaqiqat, predikativlik grammatikada

o‘z o‘rniga ega bo‘lsa-da, asliy mohiyatiga ko‘ra mantiqiy tushunchadir. Uni sof grammatik tushuncha deb bo‘lmaydi. Predikativlikning funksional qiymati biror narsani atash orqali emas, balki xabar ifodasi orqali biror narsani bilish, nimanidir tushunish orqali belgilanadi [Lomtev, 1972; 28].

Shunday qilib, tilshunoslik adabiyotlarida predikativ hodisasining turlicha izohlanganligini, bu sohada tilshunoslar fikrlarida yakdillik yo‘qligini ko‘ramiz. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur masalaning tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida ham muammoli va izohtalab bo‘lib qolayotganidan dalolat beradi. Ammo so‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan ba‘zi tadqiqotlarda bu borada ancha siljish ro‘y berayotganini kuzatamiz. Masalan, bu xususda aytilgan A.Numonov, N.Mahmudov, A.Axmedov va S.Solixo‘jayevalarning “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi”da ilmiy asoslangan, xususan, o‘zbek tilshunosligi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan fikr va mulohazalar hamda keyingi davrlarda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari fikr isboti bo‘lishi mumkin.

S.B. Inoyatovning “O‘zbek tilida predikativ munosabat” deb nomlanuvchi nomzodlik dissertatsiyasida predikativlik mazmuniy-grammatik hodisa sifatida izohlangani va uning ifodalanish usullari xususida ba‘zi yangi va ijobiy fikrlar bildirilganini ko‘ramiz [Inoyatov, 1999].

R.R. Bobokalonovning “O‘zbek tilida semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida hozirgi o‘zbek tilida so‘z-gaplarning semantik, funksional va sintaktik xususiyatlari, ularning predikativlikka munosabati haqida birmuncha teran va ilmiy asoslangan fikrlar berilganligini ham alohida qayd etamiz [Bobokalonov, 2000].

So‘nggi yillarda himoya qilingan S.X. Muhamedovaning “O‘zbek tilida yo‘nalma harakat fe‘llarining predikativligi va valentligi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ham fe‘lning, xususan, yo‘nalma harakat fe‘llarining predikativligi masalasi atroflicha o‘rganilganligini kuzatamiz [Muhamedova, 1999].

Ana shunday ishlar jumlasiga L.R. Raupovanning “O‘zbek tilida nomustaqil kesim masalasi va [WP_m WP_m] qurilishli gaplar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini ham kiritish mumkin [Raupova, 1999]. Shuningdek, o‘zimizning nomzodlik dissertatsiyamiz va mavzuga oid boshqa tadqiqotlarimizda ham muhim xulosalarni keltirib bormoqdamiz [Xayrullayev, 2001; Khayrullayev, 2009; Turniyozov va boshq., 2009].

XULOSA

Mazkur ishlarning barchasida an‘anaviy tilshunoslikda tadqiqot nazaridan chetda qolgan yoki yangicha talqini lozim bo‘lgan masalalar tahlil va tavsiflari kun tartibiga qo‘yilgan. Buning esa, o‘z navbatida, fanimiz taraqqiyoti uchun ma‘lum darajada ijobiy hissa bo‘lib qo‘shilajakligi shubhasizdir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, tilshunosligimiz taraqqiyotining hozirgi davrida turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tilining o‘z ichki qurilishi qonun va qoidalariga tayangan holda amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlari tahsinga sazovordir. Biroq tilshunoslikning ko‘pgina muammoli masalalari borki,

ular alohida olingan bir tilning ichki xususiyatlari doirasida emas, balki umumiy tilshunoslik fani doirasida asoslanmog'i lozim. Ana shunday masalalardan biri predikativlik hodisasining talqinidir. Ayni zamonda mazkur masala nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki umumiy tilshunoslik fani doirasida ham izohtalabdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, K.M. (1983). *Problemy sintaksisa prostogo predlozheniya v azerbaydzhanskom yazyke*. Baku: Elm.
2. Abdurahmonov, G'. (1996). *O'zbek tili grammatikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
3. Admoni, V.G. (1955). *Vvedeniye v sintaksis sovremennogo nemetskogo yazyka*. Moskva: Izdatel'stvo inostrannoy literatury.
4. Akhmatov, I.Kh. (1988). Polipredikativnyye konstruksii s sub'yektnymi oborotami vtyurkskikh yazykakh (na materiale karachayevo-balkarskogo yazyka). *Sovetskaya tyurkologiya*, 2, 24–31.
5. Balli, Sh. (2009). *Obshchaya lingvistika i voprosy frantsuzskogo yazyka* (3-ye izd.; per. s fr.). Moskva: URSS.
6. Baskakov, A.N. (1984). *Predlozheniye v sovremennom turetskom yazyke*. Moskva: Nauka.
7. Bobokalonov, R.R. (2000). O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: Fan.
8. Budagov, R.A. (1965). *Vvedeniye v nauku o yazyke*. Moskva: Prosveshcheniye.
9. Desheriyeva, T.I. (1987). O sootnoshenii modal'nosti i predikativnosti. *Voprosy yazykoznaniya*, 1, 34–45.
10. Gak, V.G. (1981). *Teoreticheskaya grammatika frantsuzskogo yazyka: sintaksis*. Moskva: Vysshaya shkola.
11. Gvozdev, A.N. (1973). *Sovremennyy russkiy literaturnyy yazyk: sintaksis* (Ch. 2). Moskva: Prosveshcheniye.
12. Inoyatov, S.B. (1999). O'zbek tilida predikativ munosabat. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
13. Kasevich, V.B. (1988). *Semantika. Sintaksis. Morfologiya*. Moskva: Nauka.
14. Katsnel'son, S.D. (1986). *Obshcheye i tipologicheskoye yazykoznaniye*. Leningrad: Nauka.
15. Khayrullayev, Kh. (2009). O lingvisticheskoy prirode urovney yazyka i rechi. *Voprosy filologicheskikh nauk*, 2, 78–79.
16. Kholodovich, A.A. (1979). *Problemy grammaticheskoy teorii*. Leningrad: Nauka.
17. Kubryakova, Ye.S. (1986). *Nominativnyy aspekt rechevoy deyatel'nosti*. Moskva: Nauka.
18. Kurilovich, Ye. (1962). *Ocherki po lingvistike* (per. s pol'skogo, fr., angl., nem.). Moskva: Izdatel'stvo inostrannoy literatury.
19. Lomtev, T.P. (1972). *Predlozheniye i yego grammaticheskiye kategorii*. Moskva: Izdatel'stvo Moskovskogo gosudarstvennogo universiteta.
20. Mahmudov, N., & Nurmonov, A. (1995). *O'zbek tilining nazariy grammatikasi: sintaksis*. Toshkent: O'qituvchi.
21. Martine, A. (2009). *Osnovy obshchey lingvistiki* (3-ye izd.; per. fr. V.V. Shevoroshkina, pod red. V.A. Zvegintseva). Moskva: URSS.
22. Matezius, V. (1967). O tak nazyvayemom aktual'nom chlenenii predlozheniya. V knige *Prazhskiy lingvisticheskiy kruzhok* (ss. 239–245). Moskva: Progress.
23. Muhamedova, S.X. (1999). O'zbek tilida yo'nalma harakat fe'llarining predikativligi va valentligi. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi Toshkent davlat universiteti.
24. Nurmonov, A. (1988). *Gap haqidagi sintaktik nazariyalar*. Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti.
25. Nurmonov, A., Mahmudov, N., Ahmedov, A., & Solixo'jayeva, S. (1992). *O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi*. Toshkent: Fan.
26. Panfilov, V.Z. (1971). *Vzaimootnosheniye yazyka i myshleniya*. Moskva: Nauka.

27. Potebnya, A.A. (1874). *Iz zapisk po russkoy grammatike* (2 t.). Voronezh: Tipografiya N.D. Gol'dsheyna.
28. Rasulov, I. (1972). Predikativlik va modallik hamda ularning o'zaro munosabatiga doir. *O'zbek tili va adabiyoti*, 4, 26–31.
29. Raupova, L.R. (1999). O'zbek tilida nomustaqil kesim masalasi va [WP_m WP_m] qurilishli gaplar. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
30. Rudnev, A.G. (1968). *Sintaksis sovremennogo russkogo yazyka*. Moskva: Vysshaya shkola.
31. Smirnitkiy, A.I. (1957). *Sintaksis angliyskogo yazyka* (2-ye. izd.; pod red. V.V. Passeka). Moskva: Izdatel'stvo inostrannoy literatury.
32. Sossyur, F. de. (1977). *Trudy po yazykoznaniyu* (perevd. s frantsuz. yaz. pod red. A.A. Kholodovicha). Moskva: Progress.
33. Steblin-Kamenskiy, M.I. (1974). *Spornoye v yazykoznanii*. Leningrad: Izdatel'stvo Leningradskogo universiteta.
34. Stepanov, Yu.S. (1975). *Osnovy obshchego yazykoznaniya* (2-ye izd.). Moskva: Prosveshcheniye.
35. Ten'yer, L. (1988). *Osnovy strukturnogo sintaksisa*. Moskva: Progress.
36. Turniyozov, N., Turniyozova, K., & Xayrullayev, X. (2009). *Struktur sintaksis asoslari*. Toshkent: Fan.
37. Valgina, N.S. (1973). *Sintaksis sovremennogo russkogo yazyka*. Moskva: Vysshaya shkola.
38. Vinogradov, V.V. (1975). *Issledovaniya po russkoy grammatike* (N.Yu. Shvedova (Red.)). Moskva: Nauka.
39. Xayrullayev, X.Z. (2001). So'z, so'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati. *Filol. fan. nomz. diss.* Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti.
40. Yartseva, V.N. (Red.). (1990). *Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar'*. Moskva: Sov. Entsiklopediya.
41. G'ulomov, A.G'., & Asqarova, M.A. (1965). *Hozirgi o'zbek adabiy tili: sintaksis*. Toshkent: O'qituvchi.
42. Shakhmatov, A.A. (1941). *Sintaksis russkogo yazyka* (2-ye izd.). Leningrad: Uchpedgiz.
43. Shutova, Ye.I. (1984). *Voprosy teorii sintaksisa*. Moskva: Nauka.

REFERENCES

1. Abdullaev, K.M. (1983). *Problems of simple sentence syntax in the Azerbaijani language*. Baku: Elm.
2. Abdurahmonov, G. (1996). *Uzbek language grammar*. Tashkent: Teacher.
3. Admoni, V.G. (1955). *Introduction to the syntax of the modern German language*. Moscow: Publishing House of 'Foreign Languages'.
4. Akhmatov, I.Kh. (1988). Polypredicative constructions with subject constructions in Turkic languages (Based on the Karachay-Balkar language). *Soviet Turkology*, 2, 24–31.
5. Bally, C. (2009). *General linguistics and issues of the French language* (3rd ed.; Trans. from French). Moscow: URSS.
6. Baskakov, A.N. (1984). *The sentence in the modern Turkish language*. Moscow: Science.
7. Bobokalonov, R.R. (2000). Semantically and functionally formed word-sentences in the Uzbek language. *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent: Science.
8. Budagov, R.A. (1965). *Introduction to the science of language*. Moscow: Enlightenment.
9. Desherieva, T.I. (1987). On the relationship between modality and predicativity. *Questions of Linguistics*, 1, 34–45.
10. Gak, V.G. (1981). *Theoretical grammar of the French language: Syntax*. Moscow: Publishing House of 'Higher School'.
11. Gulomov, A.G., & Asqarova, M.A. (1965). *Modern Uzbek literary language: Syntax*. Tashkent: Teacher.
12. Gvozdev, A.N. (1973). *The modern Russian literary language: Syntax* (Part 2). Moscow: Publishing House of 'Enlightenment'.

13. Inoyatov, S.B. (1999). Predicative relations in the Uzbek language. *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent: Institute of Language and Literature named after Alisher Navoi.
14. Kasevich, V.B. (1988). *Semantics. Syntax. Morphology.* Moscow: Science.
15. Katsnelson, S.D. (1986). *General and typological linguistics.* Leningrad: Science.
16. Khayrullaev, Kh. (2009). On the linguistic nature of the levels of language and speech. *Questions of Philological Sciences*, 2, 78-79.
17. Khayrullayev, Kh.Z. (2001). The relationship of the word, word combination, and sentence to predicativity. *Diss. cand. philol. scien.* Samarkand: Samarkand State Institute of Foreign Languages.
18. Kholodovich, A.A. (1979). *Problems of grammatical theory.* Leningrad: Science.
19. Kubryakova, Y.S. (1986). *The nominative aspect of speech activity.* Moscow: Science.
20. Kurylowicz, Y. (1962). *Essays on linguistics* (translated from Polish, French, English, and German). Moscow: Publishing House 'Foreign Languages'.
21. Lomtev, T.P. (1972). *The sentence and its grammatical categories.* Moscow: Moscow State University Publishing House.
22. Mahmudov, N., & Nurmonov, A. (1995). *Theoretical grammar of the Uzbek language: Syntax.* Tashkent: Teacher.
23. Martinet, A. (2009). *Foundations of general linguistics* (3rd ed.; V.V. Shevoroshkin (Transl.); V.A. Zvegintsev (Ed.)). Moscow: URSS.
24. Mathesius, V. (1967). On the so-called functional sentence perspective. In *Prague Linguistic Circle* (pp. 239–245). Moscow: Progress.
25. Muhamedova, S.Kh. (1999). Predicativity and valency of directional motion verbs in the Uzbek language. *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent: Tashkent State University named after Mirzo Ulugbek.
26. Nurmonov, A. (1988). *Syntactic theories of the sentence.* Tashkent: Tashkent State Pedagogical Institute named after Nizami.
27. Nurmonov, A., Mahmudov, N., Ahmedov, A., & Solikhojaeva, S. (1992). *Semantic syntax of the Uzbek language.* Tashkent: Science.
28. Panfilov, V.Z. (1971). *The relationship between language and thought.* Moscow: Science.
29. Potebnya, A.A. (1874). *From notes on Russian grammar* (Vols. 1–2). Voronezh: Printing House of N.D. Goldstein.
30. Rasulov, I. (1972). On predicativity and modality and their interrelation. *Uzbek Language and Literature*, 4, 26–31.
31. Raupova, L.R. (1999). The problem of dependent predicates in the Uzbek language and sentences with the [WP_m WP_m] structure. *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent: Institute of Language and Literature named after Alisher Navoi.
32. Rudnev, A.G. (1968). *Syntax of the modern Russian language.* Moscow: Publishing House of 'Higher School'.
33. Saussure, F. de. (1977). *Works on linguistics* (Transls. from French; A.A. Kholodovich (Ed.)). Moscow: Progress.
34. Shakhmatov, A.A. (1941). *Syntax of the Russian language* (2nd ed.). Leningrad: Publishing House of 'Uchpedgiz'.
35. Shutova, Y.I. (1984). *Issues in the theory of syntax.* Moscow: Science.
36. Smirnitsky, A.I. (2007). *Syntax of the English language* (2nd ed.; V.V. Passek (Ed.)). Moscow: Publishing House 'Foreign Languages'.
37. Steblin-Kamensky, M.I. (1974). *Controversial issues in linguistics.* Leningrad: Leningrad State University Publishing House.
38. Stepanov, Y.S. (1975). *Foundations of general linguistics* (2nd ed.). Moscow: Publishing House of 'Enlightenment'.
39. Tesnière, L. (1988). *Foundations of structural syntax.* Moscow: Publishing House of 'Progress'.
40. Turniyozov, N., Turniyozova, K., & Khayrullayev, Kh. (2009). *Foundations of structural*

syntax. Tashkent: Science.

41. Valgina, N.S. (1973). *Syntax of the modern Russian language*. Moscow: Publishing House of 'Higher School'.
42. Vinogradov, V.V. (1975). *Studies in Russian grammar* (N.Y. Shvedova (Ed.)). Moscow: Science.
43. Yartseva, V.N. (Ed.). (1990). *Linguistic encyclopedic dictionary*. Moscow: Publishing House of 'Soviet Encyclopedia'.